

INNOVATSION IQTISODIYOTDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI VA AMALIY YO'NALISHLARI

Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti

ORCID:0009-0002-2385-5485

E-mail: muhayyo.ravshanova@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada muallif tomonidan innovatsion iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat tizimini optimallashtirish masalalari ilmiy va uslubiy jihatdan o'rganilgan. Tadqiqotda, O'zbekiston elektron tijorat bozorining holati, imkoniyatlari va muammolari tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik modellashirish, va empirik yondashuv usullari qo'llanilib tahlil qilingan. Natijada elektron tijoratni samarali boshqarish uchun integratsiyalashgan raqamli platformalar, sun'iy intellekt, logistika zanjirini raqamlashtirish yo'nalishlari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari elektron tijoratni rivojlantirishning ilmiy asoslarini yaratish hamda innovatsion iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion iqtisodiyot, elektron tijorat, optimallashtirish, raqamli platforma, sun'iy intellekt, logistika, to'lov tizimi, raqamli infratuzilma.

Аннотация

В данной статье исследуются научно-методические основы оптимизации системы электронной коммерции в условиях инновационной экономики. В работе применены методы системного анализа, экономико-математического моделирования, и эмпирического подхода. Рассмотрено текущее состояние, проблемы и перспективы развития электронной коммерции в Узбекистане. В результате предложены направления оптимизации электронной коммерции — создание интегрированных цифровых платформ, внедрение искусственного интеллекта, использование анализа больших данных и цифровизация логистических цепей. Полученные результаты способствуют развитию теоретических основ электронной коммерции и устойчивому росту инновационной экономики.

Ключевые слова: электронная коммерция, инновационная экономика, оптимизация, цифровая платформа, искусственный интеллект, большие данные, логистика, платежная система, цифровая инфраструктура.

Abstract

This article examines the scientific and methodological tools for optimizing the e-commerce system under the conditions of an innovative economy. The research employs system analysis, economic-mathematical modeling, and empirical approaches to study the current state, opportunities, and challenges of e-commerce development in Uzbekistan. The study proposes optimization methods such as the creation of integrated digital platforms, the implementation of artificial intelligence and Big Data analytics, and the digitalization of logistics chains. The results contribute to the

development of a scientific foundation for e-commerce and support the sustainable growth of the innovative economy.

Keywords: e-commerce, innovative economy, optimization, digital platform, artificial intelligence, Big Data, logistics, payment systems, digital infrastructure.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo iqtisodiyoti keskin raqamlashtirish jarayonini boshdan kechirmoqda. Raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismi sifatida elektron tijorat global miqyosda eng tez rivojlanayotgan sohalardan biriga aylandi. Xalqaro statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyo elektron savdo hajmi 6,3 trillion AQSh dollaridan oshdi. Shu jarayonda innovatsion iqtisodiyot konsepsiyasi — ya'ni texnologik yangiliklar, raqamli yechimlar va sun'iy intellekt asosidagi boshqaruv mexanizmlarini joriy etish — elektron tijorat tizimlarining samaradorligini belgilovchi asosiy omilga aylandi.

Elektron tijorat tizimining samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar, iqtisodiy modellar va ilmiy-uslubiy vositalarning o'рни beqiyosdir. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida elektron tijorat infratuzilmasi rivojlanish bosqichida bo'lib, u raqamli platformalar, to'lov tizimlari va logistika tarmoqlari orqali iqtisodiyotning yangi yo'nalishlarini shakllantirmoqda. Shu bois, elektron tijoratni optimallashtirish masalalari nafaqat texnologik, balki iqtisodiy va tashkiliy jihatdan ham kompleks yondashuvni talab etadi.

Mazkur maqola innovatsion iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat tizimini takomillashtirish, uning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish hamda amaliy natijalarni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi — elektron tijorat tizimini optimallashtirish uchun kompleks yondashuvni ishlab chiqish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishning ilmiy-uslubiy yo'llarini asoslashdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Elektron tijoratning nazariy asoslari 1990-yillardan boshlab rivojlandi. R. Kalakota va A. Whinston 1997-yillarda elektron tijoratni "raqamli tarmoq orqali amalga oshiriladigan tijorat faoliyatining barcha shakllari" sifatida ta'riflagan. Ularning fikricha, elektron tijorat iqtisodiyotda transaksion xarajatlarni kamaytirish orqali samaradorlikni oshiradi [1].

Raqamli iqtisodiyotda raqobat ustunligini yaratish uchun raqamli platformalar va innovatsion biznes modellarining strategik ahamiyatini 2001 yilda Maykl Porter asoslab berdi. Unga ko'ra, raqamli innovatsiyalar bozorda qiymat zanjirini qayta shakllantiradi. Elektron marketing nazariyasida iste'molchilar bilan o'zaro aloqani avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlilidan foydalangan holda individual takliflar yaratish mexanizmlarini P. Kotler tomonidan yoritilgan [2].

Mahalliy tadqiqotchilardan N. Abdullaeva, Sh. Xakimov va A. G'ulomovlar O'zbekistonda elektron tijorat infratuzilmasining shakllanish jarayonini, elektron to'lov tizimlarining xavfsizligini, hamda davlat tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish siyosatini tahlil qilganlar [3]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020–2030-yillarga mo'ljallangan "Raqamli O'zbekiston"

strategiyasi doirasida elektron tijoratni qo'llab-quvvatlash, onlayn xizmatlar sifatini oshirish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash va transchegaraviy elektron savdo mexanizmlarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [4].

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada tizimli yondashuv, komparativ tahlil usuli, matematik modellash va optimalashtirish usuli hamda empirik tahlil usullaridan foydalanib, mavzuga oid ko'plab adabiyotlar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi bilan chambarchas bog'liq jarayondir. Elektron savdo tizimlari nafaqat tovar va xizmatlar aylanmasini tezlashtiradi, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda global raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, ayniqsa, elektron tijorat yo'nalishida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablari sifatida internet tarmog'ining kengayishi, to'lov tizimlarining takomillashuvi, aholi orasida raqamli savodxonlikning oshishi hamda davlat tomonidan elektron savdoni qo'llab-quvvatlash choralari qayd etiladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, elektron tijorat tizimining samaradorligi ko'p jihatdan uning texnologik bazasiga bog'liq. Platformalarning o'zaro integratsiyalashganligi, to'lov tizimlarining ishonchligi, kiberxavfsizlik darajasi va foydalanuvchi tajribasining yaxshilanishi tizim barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [5]. Shu bois, O'zbekiston sharoitida elektron tijorat tizimini optimallashtirish jarayonida texnologik modernizatsiyani jadallashtirish, bulutli hisoblash va sun'iy intellekt yechimlarini tatbiq etish muhim omil hisoblanadi.

Xalqaro tajriba tahlili, xususan, Amazon, Alibaba va eBay kompaniyalari misolida olib borilgan o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, ilg'or mamlakatlarda elektron tijorat tizimlari nafaqat savdo platformasi sifatida, balki butun bir innovatsion ekotizim sifatida shakllangan. Masalan, Amazon o'z faoliyatida logistika va tahlil tizimini sun'iy intellekt orqali boshqaradi, foydalanuvchilarga individual tavsiyalar beradi, yetkazib berish vaqtini avtomatik algoritmlar orqali optimallashtiradi [6]. Natijada xaridor sodiqligi ortadi, tranzaksiya hajmi ko'payadi va kompaniya foydasi oshadi. Alibaba esa Xitoy bozorida blockchain asosidagi to'lov tizimi — "Alipay"ni joriy etish orqali kiberxavfsizlikni kuchaytirgan va foydalanuvchi ishonchini oshirgan. eBay esa mijozlar-aro savdo modelini yo'lga qo'yish orqali bozorda yangi iqtisodiy model — "iste'molchidan iste'molchiga" tizimini yaratdi.

Tahlillar shuni ham ko'rsatadiki, mamlakatimizda elektron tijoratning rivojlanishiga to'siq bo'layotgan omillar ham mavjud. Ularning asosiylari — to'lov tizimlari o'rtasida to'liq integratsiya yo'qligi, logistika infratuzilmasining ayrim hududlarda yetarli darajada rivojlanmaganligi, kiberxavfsizlik tizimlarining kuchsizligi va iste'molchilarning ayrim segmentlarida raqamli ishonchning pastligi. Shu sababli, elektron tijoratni yanada rivojlantirish uchun davlat tomonidan huquqiy

asoslarni takomillashtirish, raqamli biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish, soliq imtiyozlari yaratish va innovatsion startaplarni rag'batlantirish zarur.

Empirik natijalar asosida aniqlanishicha, O'zbekistonda elektron tijorat tizimining samaradorligini 25–30 foizga oshirish uchun quyidagi omillarni optimallashtirish talab etiladi: birinchidan, to'lov tizimlarining yagona platforma orqali integratsiyasini ta'minlash; ikkinchidan, logistika zanjirini sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirish; uchinchidan, foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish tizimini kuchaytirish va shaffoflikni ta'minlash [7]. Shu bilan birga, elektron tijoratni eksport yo'nalishiga moslashtirish, ya'ni O'zbekiston ishlab chiqaruvchilarining mahsulotlarini xalqaro raqamli bozorlarga chiqarish mexanizmlarini yaratish ham muhim strategik yo'nalish hisoblanadi.

Xalqaro taqqoslashlar natijasida quyidagi farqlar aniqlangan: AQSh va Xitoyda elektron tijorat hajmi YaIMning mos ravishda 12–15 foizini tashkil etadi, O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 2 foiz atrofida. Shu bois, mamlakatimizda elektron tijoratni rivojlantirish uchun iqtisodiy va texnologik siyosatni uyg'unlashtirgan strategik dasturlar ishlab chiqish zarur. Ayniqsa, "Raqamli O'zbekiston – 2030" konsepsiyasi doirasida elektron tijoratni davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilash muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi tahlillar shuni isbotlaydiki, elektron tijorat tizimini optimallashtirishda xalqaro tajriba va milliy sharoit o'zaro bir-birini to'ldiruvchi omillardir. Innovatsion iqtisodiyotga asoslangan boshqaruv modeli, texnologik yechimlar va strategik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini uyg'unlashtirish orqali elektron tijoratning iqtisodiy samaradorligi, foydalanuvchi ishonchi va raqamli raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshiriladi. Shu tarzda, O'zbekiston nafaqat ichki bozorni raqamlashtirgan, balki xalqaro elektron savdo tizimiga faol integratsiyalashgan raqamli iqtisodiyot markaziga aylanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat tizimini optimallashtirish bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli savdo tizimlari bugungi kunda nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish vositasi, balki innovatsion transformatsiyaning asosiy drayverlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Elektron tijoratning rivojlanishi orqali milliy iqtisodiyotning yangi raqamli modeli shakllanadi, biznes jarayonlar avtomatlashtiriladi va aholining iqtisodiy faol qatlamlari uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar elektron tijorat tizimining O'zbekiston iqtisodiyotida tutgan o'rni va xalqaro tajriba bilan solishtirganda mavjud tafovutlarni aniqlash imkonini berdi. Mahalliy bozorda elektron savdo hajmining ortib borayotgani, platformalar sonining ko'payishi, raqamli to'lov tizimlarining takomillashuvi va foydalanuvchilar sonining jadal o'sishi ijobiy tendensiyalar sifatida baholandi. Shu bilan birga, tizimda bir qator kamchiliklar ham mavjud: logistika infratuzilmasining ayrim hududlarda yetarli darajada rivojlanmaganligi, to'lov tizimlari o'rtasida to'liq

integratsiya yo'qligi, kiberxavfsizlik masalalarining dolzarbligi hamda elektron eksport imkoniyatlarining cheklanganligi.

Shunday qilib, olib borilgan tahlillar asosida aytish mumkinki, elektron tijorat tizimini optimallashtirish innovatsion iqtisodiyot sharoitida milliy raqamli siyosatning muhim yo'nalishi sifatida qaralishi zarur. Buning uchun texnologik, tashkiliy va institutsional omillarni uyg'unlashtirgan holda elektron savdo tizimini boshqarishning yangi paradigmasini shakllantirish muhimdir. Ushbu ilmiy-uslubiy yondashuv O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasini tezlashtirish, xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va raqamli iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash uchun mustahkam poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kalakota, R., va Whinston, A.B. (1997). Electronic Commerce: A Manager's Guide. Reading, MA: Addison-Wesley.
2. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – Free Press, 2008.
3. Abdullaeva N., Hakimov Sh., G'ulomov A. (2022). O'zbekistonda elektron tijorat infratuzilmasining rivojlanish jarayoni va raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №3, B. 58–67.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ–6079-sonli qarori. – 2020-yil 5-oktabr.
5. Равшанова М.М. (2021). Эконометрикадаги математик усуллар ижтимоий-иқтисодий тизимларни таҳлил қилиш ва тадқиқ қилиш воситаси сифатида. Экономика и социум, (5-2 (84)), 1036-1038.
6. Бегалиева, М.А. (2025). Э-бизнесни ривойланиш стратегияси. золотой мозг, 3 (4), 79-83.
7. Evaluation of factors influenced by the digital-electronic commerce system in reducing economic expectations. (2025). Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice, 1(5), 170-175.
<https://brightmindpublishing.com/index.php/EI/article/view/743>